| | |
|---|---|
| | 10. Бабушкин Л. Н., Когай Н.А., Зокиров Ш.С. Агроклиматический условия селского хозяйство. Т. 1974.<br>11. Воҳидов С.Е. Развития и размешинея селско-хозяйственного производство Узбекистана. Т. 1990 .<br>12. Зиёдуллаев.С.К. Регионалные проблемы экономики Узбекистана. –Т.1995.<br>13. Садыков А. Формирование и развития регионалых агропромишленных комплексов.- Т. 1989.<br>14. Saydaminova Z., Axmedov E. O'zbekiston Respublikasi .T. 1998.<br>15. Экономика селского хозяйства.– М. Агропромиздат. 1990.<br>16. O'zbekiston Milliy atlasi. II jild. O'zbekiston respublikasining aholisi va ijtimoiy sohalari, iqtisodiyoti va tarixi. -Toshkent.: "Kartografiya" DIICHK, 2020.<br>17. 8-sinf atlasi.Yergeodezkadastr. –T.2016<br>18. Surxondaryo viloyatining o'lkashunoslik atlasi. -Toshkent.: Yergeodezkadastr. -2016.<br>**Internet saytlari**<br>19. www.ziyonet.uz<br>20. www.nuu.uz<br>21. www.tersu.uz |
| 7 | **Termiz davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va tasdiqlangan** |
| 8 | **Fan/modul uchun mas'ullar:**<br>**M.N.Erdonov** – TerDU "Geografiya" kafedrasi mudiri, g.f.n., dotsent.<br>**Z.M. Xalmatov** – TerDU "Geografiya" kafedrasi o'qituvchisi |
| 9 | **Taqrizchilar:**<br>**Q. Allanov** - TerDU "Geografiya" kafedrasi dotsenti, g.f.n.<br>**O'.Yakubov** - TerDPI "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" kafedrasi mudiri, dotsenti., g.f.n. |

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI**

**«TASDIQLAYMAN»**
**Termiz davlat universiteti rektori**
**__________ A.R.Maraximov**
**"____" __________ 2023 y**

# QISHLOQ XO'JALIGI GEOGRAFIYASI
**fanidan**
**O'QUV DASTURI**

| | |
|---|---|
| Bilim sohasi: | 500000 – Tabiiy fanlar, matematika va statistika |
| Ta'lim sohasi: | 530000 – Fizika va tabiiy fanlar |
| Ta'lim yo'nalishi: | 60530400 – Geografiya |

**Termiz -2023**

| Fan/modul kodi<br>QXGB304 | O'quv yili<br>2023-2024 | Semestr<br>7 | ECTS - Kreditlar<br>4 | |
|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>tanlov | Ta'lim tili<br>O'zbek | | Haftadagi dars soatlari<br>7-semestr 4 soat | |
| 1. Fanning nomi | | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| Qishloq xo'jaligi geografiyasi | | 60 | 60 | 60 |

2

## I.Fanning mazmuni

Fanni o'qitishdan maqsad - talabalarda qishloq xo'jaligi geografiyasi fanining ilmiy-nazariy asoslari, xo'jalik tarmog'i sifatida qishloq xo'jaligi tizimlarining shakllanishi va rivojlanishiga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat. Mazkur o'quv fani orqali talabalar qishloq xo'jaligi geografiyasining nazariy asoslarini, qishloq xo'jaligining iqtisodiyot tarmog'i sifatida shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini, uning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va rolini, qishloq xujaligini geografik rayonlashtirish asoslarini, qishloq xo'jalik tarmoqlarining tuzilishi va mintaqaviy rivojlanishi muammolarini o'rganadilar.

Fanning ahamiyati va vazifalari:

- qishloq xo'jaligi geografiyasi fanining ilmiy-nazariy asoslari bilan tanishtirish;
- hududlar qishloq xo'jaligining geografiyasi, geografik imkoniyatlarini baholash;
- qishloq xo'jaligi – zamonaviy jahon xo'jaligining asosiy bo'g'ini sifatida tushuntirish;
- jahon xo'jaligi rivojlanishida qishloq xo'jaligining ahamiyatini baholash;
- mintaqaviy rivojlanish dasturlarida qishloq xo'jalik infrastrukturasining ahamiyatini yoritib berish;
- qishloq xo'jalik geografiyasining tizimlarining shakllanishi va rivojlanish qonuniyatlarini o'rgatish;
- hududlarning qishloq xo'jaligi ma'lumotlarini, statistic to'plamlarini qayta ishlash, tahlil qilishni o'rgatish;
- qishloq xo'jaligi xaritalarini o'rgatish, tahlil qila olish va yaratishni o'rgatish;
- har xil manbalarni o'rganish, tahlil qilish va baholash qobiliyatini takomillashtirish va ularning natijalari asosida tanqidiy yondoshgan holda mustaqil holda materialni qayta ishlash, ishonchli xulosa va takliflar qilish.

## II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

### II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: (THEMES)

**1-mavzu: Qishloq xo'jaligi geografiyasi fanining maqsadi, predmeti va vazifalari Qishloq xo'jaligining xalq xo'jaligida tutgan o'rni.**

Fanning maqsadi, predmeti va vazifalari. Qishloq xo'jaligining xalq xo'jaligida tutgan o'rni va o'ziga xos xususiyatlari. Qishloq xo'jaligining O'zbekiston Respublikasi milliy iqtisodiyotida tutgan o'rni.

**2-mavzu: Jahon qishloq xo'jalik geografiyasi.**

Dehqonchilik.Chorvachilik.Qishloq xo'jaligini hududiy tashkil etilishi va tabiiy zonalari buyicha ixtisoslashuvi.

**3-mavzu: Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining joylashish va rivojlanish qonuniniyatlari.**

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining joylashishi va rivojlanishiga tabiiy sharoitning ta'siri. Qishloq xo'jaligini joylashishi va rivojlanishida iqtisodiy-ijtimoiy omillarning roli. Qishloq xo'jaligi tarmoqlarining rivojlanishidagi regional xususiyatlar.

**4-mavzu: Yer sayyorasining sathi, ularning qit'alararo taqsimlanishi. Haydaladigan yerlarni kengaytirish muammolari.**

Yer sayyorasining umumiy maydoni. Yer kategoriyalari. Yerni qishloq xo'jaligida foydalanish darajasi. O'zbekiston Respublikasining yer maydoni va uni saqlash muammolari.

**5-mavzu: Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligining o'rni va rivojlanish xususiyatlari.**

Hozirgi zamon qishloq xo'jaligi tizimi, Rivojlangan davlatlarning qishloq xo'jaligi, Rivojlanayotgan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi, Afrika qit'asi qishloq xo'jaligi.

**6-mavzu: Rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligining o'rni va rivojlanish xususiyatlari**

Rivojlangan davlatlarninq qishloq xo'jaligi tizimi, Amerika Qo'shma Shtatlarida qishloq xo'jaligi, Janubiy Amerika mamlakatlarida qishloq xo'jaligi qishloq xo'jaligi, Janubiy – Sharqiy Osiyo mamlakatlarida qishloq xo'jaligi.

**7-mavzu: Donli ekinlar geografiyasi**

Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida donchilikning tutgan o'rni. Dunyo mamlakatlarida donchilikning joylanishi va rivojlanishi. Kuzgi va bahorikor donchilik. O'zbekistonda donchilik va uning rivojlanishi.

**8-mavzu: Texnika ekinlari geografiyasi**

Texnika ekinlarining xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Tolali texnika ekinlari. Qandli texnika ekinlari. Moyli texnika ekinlari. Efir moyli va kauchukli texnika ekinlari. O'zbekistonda texnika ekinlari etishtirish : paxtachilik va uning istiqbollari.

**9-mavzu: Sabzavotchilik va polizchilik mahsulotlari etishtirish. Bog'dorchilik**

Sabzavotchilik va uning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishidagi ahamiyati. Poliz ekinlari etishtirish. O'zbekistonda sabzavotchilik va polizchilik mahsulotlari etishtirish.

Bog'dorchilikning qishloq xo'jalik ishlab chiqarishida tutgan o'rni. Mevali o'simliklar etishtirish. Tsitrus va subtropik o'simliklar etishtirish. Uzumchilik va uning joylanishi. O'zbekistonda bog'dorchilik va uzumchilikning joylanishi va rivojlanishi.

**10-mavzu: Chorvachilik va uning tarmoqlar geografiyasi**

Chorvachilikning xalq xo'jaligida tutgan o'rni.Qoramolchilik. Cho'chqachilik va uning dunyo mamlakatlarida joylanishi. Qo'ychilik va uning xalq xo'jaligidagi ahamiyati. Yilqichilik. Parrandachilik. Chorvachilikning boshqa tarmoqlari.

**11-mavzu: Agrosanoat majmui. Agrobiznes**

Agrosanoat to'g'risida tushuncha. Agrar munosabatlar. Renta va uning turlari. Agrobiznes va uning tarkibi.

**12-mavzu: O'zbekistonda qishloq xo'jalik tarmoqlar tarkibi va geografiyasi**

O'zbekistonning qishloq xo'jaligi. Yer fondi, tarkibi va undan foydalanish. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi ekinlari, O'zbekiston chorvachiligi.

**13-mavzu: O'zbekistonda qishloq xo'jaligida paxtachilikning ahamiyati**

Paxtachilik. Paxtachilik tarmog'i. Paxta ekinlari turlari. Paxta ekin maydonlari. Paxtani qayta ishlash. Paxta eksporti

**14-mavzu: O'zbekistonda chorvachilikning joylanishi va rivojlanish istiqbollari**

Chorvachilikning O'zbekiston milliy iqtisodiyotida tutgan o'rni. Qo'ychilik va uning joylanishi. Qorako'l qo'ychiligi va uning mamlakat chorvachiligidagi ahamiyati, chorvachilikning boshqa tarmoqlari.

**15-mavzu: Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ekologik muammolar**

Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarini sug'orish bilan bog'liq ekologik muammolar: sho'rlanish, jarlanish, eroziya. Suvlarning qishloq xo'jaligida foydalaniladigan kimyoviy vositalar bilan ifloslanishi. Unumdor tuproq muammolari, tuproqlar degradatsiyasi.

3

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar (list of seminar topics)**

Amaliy mashg'ulotlarda talabalar olingan nazariy bilimlarni amalda mustahkamlash uchun turli mavzuli kartalar chizish, ularning shartli belgilarini o'qish, kartalarni tahlil qilish, kartalar asosida kesmalar tayyorlash,statistik ma'lumotlarni to'plash, tahlil qilish kabi vazifalarni bajaradilar va shunga muvofiq baholanadilar.

Qishloq xo'jaligi geografiyasi kursida quyidagi mavzularda amaliy ishlar bajariladi.

1. Jahonning qishloq xo'jaligiga geografik tavsif
2. Qishloq xo'jaligining jahon mamlakatlari milliy iqtisodiyotida tutgan o'rni
3. Jahonning asosiy qishloq xo'jalik rayonlari
4. Rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo'jaligida "Yashil inqilob"
5. Jahon yer fondining toifalarga bo'linishi
6. Dehqonchilikda donchilikning joylanishi va rivojlanishi
7. Texnik ekinlar yetishtirishning istiqbolli rejalari
8. Jahonda sabzavot va poliz yetishtirish
9. Bog'dorchilik va uzumchilikning joylanishi hamda rivojlanishi
10. Chorvachilik tarmog'ida qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik, yilqichlik, tuyachilik
11. O'zbekistonning qishloq xo'jaligi tarmoqlari
12. O'zbekistonda donchilik sohasining tarmoqlar tarkibi
13. O'zbekiston qishloq xo'jaligida paxtachilikning ahamiyati
14. O'zbekiston qishloq xo'jaligida chorvachilikning ahamiyati
15. Qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ekologik muamollar

**IV. MUSTAQIL TA'LIM VA MUSTAQIL ISHLAR (Independent study and independent work)**

Qishloq xo'jaligi geografiyasi kursida mustaqil ta'lim auditoriyada o'qituvchi tomonidan o'tilgan har bir mavzu (ma'ruza va amaliy mashg'ulot mavzulari)talaba tomonidan darsdan tashqari vaqtda tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlardan hamda internet ma'lumotlaridan foydalangan holda muntazam ravishda qayta ishlanib, to'ldirilib, kengaytirilib borish orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, talabalarning mustaqil ishlari amaliy ishlarga singdirilgan holda joriy nazorat shaklida baholanadi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. Qishloq xo'jaligi geografiyasi fanining maqsadi va vazifalari
2. Jahon qishloq xo'jaligiga umumiy tavsif
3. Jahon qishloq xo'jaligi tarmoqlar tarkibi

| | |
|---|---|
| | 4. Qishloq xo'jaligining mamlakatlar iqtisodiyotidagi ahamiyati<br>5. Qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlash sanoati<br>6. Jahonning qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan mintaqalari<br>7. Jahon yer fondi<br>8. "Yashil inqilob" tushunchasi<br>9. Rivojlanayotgan mamlakatlar qishloq xo'jaligi<br>10. Jahon yer fondi va uning toifalari<br>11. Rivojlangan mamlakatlar qishloq xo'jaligi<br>12. Jahonda donchilikning joylanishi va rivojlanishi<br>13. Donli ekinlar turlari va ularni yetishtirish<br>14. Texnik ekinlar va ularni yetishtirish istiqbollari<br>15. Texnik ekinlar turlari<br>16. Jahon mamlakatlarida sabzavot va poliz yetishtirish<br>17. Jahonda sabzovot va poliz ekinlari yetishtiriladigan rayonlar<br>18. Jahonda bog'dorchilik va uzumchilik yetishtiriladigan rayonlar<br>19. Chorvachilik va uning tarmoqlari<br>20. Jahon chorvachilik tarmog'ida qoramolchilik, cho'chqachilik, qo'ychilik, yilqichlik, tuyachilik<br>21. Agrosanoat to'g'risida tushuncha<br>22. O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmoqlari tarkibi<br>23. O'zbekiston qishloq xo'jaligining rivojlanishi va istiqbollari<br>24. O'zbekistonda donchilik sohasining rivojlanishi va istiqbollari<br>25. O'zbekistonda chorvachilik sohasining tarmoqlar tarkibi<br>26. O'zbekistonda paxtachilikning rivojlanishi va istiqbollari<br>27. O'zbekistonda paxtachilik tarmog'ining rivojlanishi va istiqbollari<br>28. O'zbekistonda chorvachilikning rivojlanishi va istiqbollari<br>29. Qishloq xo'jaligi ekin maydonlarida uchrayorgan ekologik muammolar<br>30. Qishloq xo'jaligidagi ekologik muamollar |
| 4 | **V. Ta'lim natijalari (Kasbiy kompetensiyalari)**<br>**Learning Outcomes (Professional Competences)**<br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>• qishloq xo'jaligi geografiyasining nazariy asoslarini, qishloq xo'jalik ishlab chiqarish tarmog'i sifatida shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini, uning milliy iqtisodiyotda tutgan o'rni va rolini, qishloq xo'jaligini geografik rayonlashtirish asoslarini, qishloq xo'jalik tarmoqlari turlari va mintaqaviy rivojlanishi qonuniyatlari bo'yicha ***tasavvur va bilimga ega bo'lishi***;<br>• qishloq xo'jaligi geografiyasi bo'yicha ilmiy tadqiqotlarni tashkil etish va bajarish, qishloq xo'jaligiga oid manbalar va statistic ma'lumotlarni qayta ishlash bo'yicha ***ko'nikmalariga ega bo'lishi***;<br>• mintaqalarning qishloq xo'jaligining iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va qishloq xo'jaligining geografik tadqiqotlarda ilmiy tadqiqot usullarini qo'llay bilish va xulosalar olish ***malakalariga ega bo'lishi kerak*** |
| | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari**<br>**(Educational technologies and): methods:**<br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar);<br>• guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• jamoa bo'lib ishlash va himoya qilish uchun loyihalar. |
| 5 | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar**<br>**(Requirements for obtaining loans):**<br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish. |
| 6 | **VIII. TAVSIYA ETILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI**<br>**Asosiy adabiyotlar**<br>1. Ro'ziyev A. Qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi asoslari. -T. "O'qituvchi". 1990<br>2. Soliyev A. O'zbekiston geografiyasi. - T. "O'qituvchi". 2014<br>3. Крючков В. Территориалная организация селского организация –М. 1975.<br>4. Лапкин К.И. Размешение и спезиализация селскохозяйственного производства. – Т. 1986.<br>5. Ракитников А. География селского хозяйства - М., 1970.<br>6. Ro'ziyev A. O'zbekiston iqtisodiy geografiyasi. - T. "Sharq". 2001<br>**Qo'shimcha adabiyotlar**<br>7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.<br>8. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent.: "O'zbekiston" nashriyoti, -2022. -416 b.<br>9. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.:O'zbekiston, 2017. |